



Jamoliddinova Durdona Umidjonovna

FarDU filologiya 3-bosqich talabasi

BADIY ADABIYOTDA VAFODORLIK TIMSOLI

(ISAJON SULTON “OZOR”, SAID AHMAD “QORAKO‘Z MAJNUN” HIKOYALARI ASOSIDA)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Isajon Sultonning “Ozor” va Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyalari tahlilga tortilgan. Hikoyalarda o‘xshashlik va farqli tomonlari ochib berilgan. Bundan tashqari itning vafodorlik timsoli ekanligi aytib o‘tilgan.

Annotation: In this article, Isajon Sultan's "Ozor" and Said Ahmed's "Karakoz Majnun" stories are analyzed. Similarities and differences are revealed in the stories. It is also mentioned that the dog is a symbol of loyalty.

Аннотация: В этой статье анализируются истории Исажона Султана "Озор" и Саида Ахмеда "Каракоз Маджнун". Сходства и различия раскрываются в историях. Также упоминается, что собака является символом верности.

Kalit so‘zlar: vafodorlik, qahramonlar xarakteri, , ichki ruhiyat, syujet liniyasi, asosiy obraz, sadoqat, tasvir plani

Key words: loyalty, character of characters, inner psyche, plot line, main character, loyalty, image plan

Ключевые слова: лояльность, характер персонажей, внутренняя психика, сюжетная линия, главный герой, лояльность, имиджевый план

Adabiyot tabiatni, insonni, umuman olganda, olamni aks ettiradi. Ijodkor o‘z his-tuyg‘ulari, o‘yfikrlarini, maqsad-muddaosini asaridagi obrazlar orgali o‘quvchiga yetkazishga harakat qiladi. Yozuvchi o‘quvchi e’tiborini tortish maqsadida hayvonlar orqali ifodalashga harakat qiladi. O‘z asarlarida hayvonlarni asosiy obrazga olib chiqadi. Turkiy xalqarda it obrazi orqali vafodirlilik, sadoqat timsoli sifatida e’zozlanadi. Masalan, Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasi it obrazi asosiy planga chiqqan. Hikoya avvalida ham hadisdan namuna keltiriladi:

Hadisi sharifdan:

«Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvondan biri bu «Ashobi kahfning vafodor iti dir». (Al-jome al-Kabir.)¹

Shuning uchun, Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” va Isajon Sultonning “Ozor” asarlaridagi vafodorlik timsoli bo‘lgan it obrazini tahlilga tortdi. Dastlab, Isajon Sultonning “Ozor” hikoyasini olsak, ushbu asarda it obrazi asosiy planda ko‘rsatilgan. Itning egasiga vafodorki, u asar davomida bir qancha sahnalarida namoyon bo‘ladi. Jumladan, egasini o‘limidan keyin ham qabri oldida yotib olishida ko‘rinadi. Bundan tashqari, egasining hayotini do‘zaxga aylantirgan odamlarni qabri oldiga yaqinlashtirmaydi. “ Yo‘qol! Yo‘qol! Egamga ozor bergenlardan bittasi sen eding! -deb irriladi kuchuk. -Nimaga keding egamning boshiga? Shuncha ozor berganining kammi?”² Asar davomida yozuvchi bu kimsalarning egasiga bo‘lgan munosabatini it monologi orqali ochib beradi. Asarda hatto kuchuk egasining ayolini ham qabrga yaqinlashtirmaydi. Bunga ham bir qancha sabablarni ko‘rsatib beradi. “ Sen egamning ayoli eding. Bu odamning kimligini butun umri davomida yashab bilmading. Ko‘rgan kuningdan norozi bo‘lib javrading, xolos.”³

¹ S.Ahmad. Qorako‘z Majnun, Toshkent, O‘zbekiston 2013. 88-bet.

² Isajon Sulton. Asarlar, 1-jild. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2017

³ Isajon Sulton. Asarlar, 1-jild. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2017



Yozuvchi qahramonlar xarakterini ochishda o‘ziga xos yo‘l tutadi. Asarda insonlarning bevafoligi itning esa aksincha, vafodorligini oddiygina qahramonlarning nomlanmaganida ham ko‘rish mumkin. Asarda Do‘stning itni otishga qilgan qarori barchaga ma’qul keladi va uni otishga borishadi. Otish sahnasida ham itning vafodorligi yaqqol ko‘rsatib beriladi. Ya’ni, it shu sahnada ham egasining ovozini eshitgan holatda uning isini izlab, egasining ruhiga ishqalanadi:

“Suyunib poyiga otildim, oyoqlarimni boshiga ishqalab, juda tanish izini izlay boshladim.”⁴

Asar so‘nggida Do‘st o‘zining “sodiqligini” o‘sha qabrtoshi orqali izhor etadi.

Endi esa Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasiga o‘tsak, asarda Qorako‘z ham o‘z egasi Saodat ayaning poyidan qolmaydi, u bilan doim birga yuradi. Yozuvchi Qorako‘zni Saodat kampirga doimiy hamrohlikda tasvirlaydi. Vafodor it Saodat kampir bilan deyarli bir xil kayfiyatda yuradi. Garchand kampirni so‘intirgan bo‘lsa ham, Bo‘rixon itdan ko‘ra Saodat ayaga begonaroqdir.

Hikoyada Saodat kampir vafotidan so‘ng yozuvchi ham Qorako‘zning ruhiyatini kitobxonlarga anglatish maqsadida o‘tkir qalami bilan uning qora ko‘zlariga ikki tomchi yoshni chizib qo‘yadi. Hikoya oxiridagi Qorako‘z majnunning o‘limi o‘quvchini mahzun qiladi. Hikoya boshida Qur‘oni Karimning «Baqara» surasidan oyat epigraf sifatida keltiriladi. Bu ko‘chirmalar aynan hikoyadagi Bo‘rixon obraziga taalluqli ekanini hech qiynalmasdan ilg‘ab olish mumkin. As‘hobi kahf to‘grisidagi hadisi sharif esa hikoyada xuddi ongli va oqil insondek tasvirlangan Qorako‘z majnunga taalluqli, albatta.

Ikki hikoyada ham it obrazi orqali vafodorlik, sadoqat timsoli o‘z yaqinlaridan-da kuchliroq ekanligi ko‘rsatib berilgan. Bundan tashqari, asarda bosh qahramonlarning ichki ruhiyati ham alohida tasvir planida ko‘rsatilgan. Ushbu asarlarda it obrazi asosiy syujet liniyasini harakatga keltiruvchi qahramon sifatida tasvirlanadi. Bosh qahramonlar it bilan huddi o‘z farzandidek suhbatlashadi, o‘z farzandlarida ko‘ra olmagan sodiqlikni kuchukdan ko‘radi.

Xulosa qilib aytganda, ikki hikoyadagi vafo, sadoqat tuyg‘ulari nafaqat insonlarda, balki hayvonlarda ham mavjud ekanligini yoritilgan. Shu birgina it obrazi orqali kitobxonga ikki yozuvchi o‘ziga xos tarzda ta’sir etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Isajon Sulton, Asarlar 1-jild. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent 2017
2. Said Ahmad, Qorako‘z majnun. Toshkent, “O‘zbekiston” 2013

⁴ Isajon Sulton. Asarlar, 1-jild. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2017